

## TARBIYACHINING KREATIVLIK POTENSIALI OSHIRISH YO‘LLARI

**Choriyeva Durdona Anvarovna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim fakulteti Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrası v.b.dotsenti

E-mail: [Choriyevadurdona76@gmail.com](mailto:Choriyevadurdona76@gmail.com)

**Ahmedova Nilufar Baxtiyor qizi**

Maktabgacha ta’lim psixologiyasi va pedagogikasi yo‘nalishi 4 kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida tarbiyachining kreativ potentsiali bo‘yicha an’anaviy tafakkur yuritish va kasbiy faoliyatida kreativlik potentsialiga ega bo‘lish chora-tadbirlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** dialektik, muloqotlilik, sabr – toqatlilik, innovatsion faoliyat, kasbiy kompetentlik va kreativlik, kreativ fikrlash, kreativ tafakkur

**Аннотация:** В данной статье освещаются традиционные представления о творческом потенциале воспитателей в системе дошкольного образования и меры по проявлению творческого потенциала в их профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** диалектика, общение, терпение, инновационная активность, профессиональная компетентность и креативность, творческое мышление, творческое мышление.

**Abstract:** In this article, traditional thinking about the creative potential of educators in the preschool education system and measures to have creative potential in their professional activities are highlighted.

**Key words:** dialectic, communication, patience, innovative activity, professional competence and creativity, creative thinking, creative thinking.

Ta’limni yangi qadriyatlar va imkoniyatlar bilan boyitib borishda pedagoglarning kasbiy mahorati va ilmiy - nazariy malakasi, ijodiy imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Bu o’quv jarayonida dialektik, muloqotlilik, sabr - toqatlilikni e’tiborga olgan holda, intellektning tahliliy yo’nalganligi bilan ham aloqadordir. Shuningdek, insonga mo’ljallangan zamonaviy bilimlar majmui darajasi, bu bilimlarni muqobil tarzda ishlatish qobiliyati, ularga tanqidiy baho berishga qodirligi bilan ham izohlanadi.

Tarbiyachining kasbiy kompetentligi va kreativligi - bu talabalarni pedagogik faoliyat, uning mazmuni, pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi, pedagog odobi va unga qo’yiladigan talablar, pedagogik faoliyatni mahoratli tashkil etish yo’llari xususidagi dolzarb muammolar bilan tanishtiradi, shuningdek, bo’lajak tarbiyachilik va pedagogik faoliyatlarini mahoratli tashkil etish, hamkasblar bilan olib boriladigan munosabatlarning o’ziga xos xususiyat va yo’nalishlari ularning shaxsni shakllantirishi, unda ma’naviy - ahloqiy sifatlarning hosil bo’lishiga ta’siri borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni beradi.

Tarbiyachining kasbiy kompetentligi va kreativligini oshirish orqali talabalarni kelgusida pedagog faoliyatida kasbiy mahoratning tutgan o’rni, mohiyati, faoliyatning turli holatlarida pedagogning muomala madaniyati, tinglovchilar bilan aloqa o’rnatish va muloqotga kirisha olish metodikasi hamda fanni to’liq o’zlashtirish natijasida talabalar oliy ta’lim muassasi, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kelajakda o’tkaziladigan pedagogik, ya’ni mustaqil ravishda pedagoglik va tarbiyachilik faoliyatini yo’lga qo’yanlarida talabalar o’zlarini erkin tuta olishni o’rganadilar, har bir vaziyatga ijodiy yondashish ko’nikmasiga ega bo’ladilar.

Muayyan omillar talabalarda kreativlik sifatlari, malakalarini rivojlantirishga to’sqinlik qiladi. Shu sababli pedagogik jarayonda tarbiyachilar ushbu omillarni bartaraf etishga e’tibor qaratishlari lozim. Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to’sqinlik qiladi:

- 1) o‘zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo‘polikka yo‘l qo‘yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo‘lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Talabalarni kreativ fikrlashga o‘rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantirish uchun avvalo pedagogning o‘zi kreativ, ijodkor shaxs bo‘lishi zarur. Tarbiyachining kreativlik potentsiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogning kreativ potentsiali an’anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
- yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati;
- bir qolipda fikrlamaslik;
- o‘ziga xoslik;
- tashabbuskorlik;
- noaniqlikka toqat qilish;
- zakovatli bo‘lish

Tarbiyachi kreativlik potentsialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g‘oyalarni yaratishda faollik ko‘rsatish;
- ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o‘rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.

Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Chorjeva, D. A. (2022, November). DIAGNOSTIC FEATURES TO IMPROVE LEARNING PROCESS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 145-149).
2. Каюмова, Н. М. Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организации. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (Vol. 1, No. 3, pp. 102-107)

